
Qabul qilindi: 5-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 9-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-oktabr 2026-yil

TASHKILOTLARDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI

Azimova Dilnoza Azamatovna

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

dilnoza.azamatovna@mail.ru



Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston tashkilotlarida innovatsion menejmentni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari mahalliy olimlarning so‘nggi yillardagi ilmiy maqolalari hamda rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Innovatsion jarayonlarni tashkil etish, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, xodimlarning innovatsion tashabbuslarini rag‘batlantirish va innovatsion loyihalar natijadorligini baholash masalalari o‘rganildi. Tadqiqot natijasida tashkilotlarda innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: innovatsion menejment, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, innovatsion faoliyat, boshqaruv samaradorligi, raqobatbardoshlik, investitsiya, innovatsion loyiha, iqtisodiy rivojlanish.

Организационно-экономические основы развития инновационного менеджмента в организациях

Аннотация. В данной тезисной работе на основе научных статей отечественных ученых последних лет и официальных статистических данных проведен анализ организационно-экономических основ развития инновационного менеджмента в организациях Узбекистана. Рассмотрены вопросы организации инновационных процессов, эффективного распределения финансовых ресурсов, стимулирования инновационных инициатив сотрудников и оценки результативности инновационных проектов. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на повышение эффективности управления инновационной

деятельностью в организациях.

Ключевые слова: инновационный менеджмент, организационно-экономический механизм, инновационная деятельность, эффективность управления, конкурентоспособность, инвестиции, инновационный проект, экономическое развитие.

Organizational and Economic Foundations for the Development of Innovation Management in Organizations

Abstract. This thesis analyzes the organizational and economic foundations for the development of innovation management in organizations in Uzbekistan, based on recent scientific articles by local scholars and official statistical data. It examines the organization of innovation processes, the efficient allocation of financial resources, the promotion of employees’ innovative initiatives, and the evaluation of innovation project performance. Based on the research findings, practical recommendations are developed to improve the effectiveness of innovation management in organizations.

Keywords: innovation management, organizational and economic mechanism, innovation activity, management effectiveness, competitiveness, investment, innovation project, economic development.

Kirish

So‘nggi yillarda innovatsion menejment ko‘plab ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlarining ajralmas qismiga aylangan, chunki hozirgi talab etilayotgan iqtisodiy sharoitda tashkilotlarning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, raqobatbardoshligini va ta’minlash bozor talablariga moslashish innovatsion menejmentni rivojlantirishni talab etadi. Innovatsion menejment yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish bilan cheklanib qolmagan holda, tashkiliy jarayonlarni takomillashtirish, boshqaruv usullarini yangilash va mavjud resurslardan samarali foydalanishkabi yana bir qancha faoliyatlarni qamrab oladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasida innovatsion infratuzilmani kengaytirish va

innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilgan [1]. Biroq ushbu vazifalarning amaliy natijasi ko‘p jihatdan tashkilotlarning innovatsiyalarni rejalashtirish, moliyalashtirish va boshqarish qobiliyatiga bog‘liq.

Mahalliy tadqiqotchilar ushbu masala ustida ko‘plar izlanishlar va tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, N. Sodiqova (2024) korxonada innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari va ularni boshqarish masalalarini yoritgan [2]. Innovatsion menejment tizimini joriy etishning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini esa A.Q.Asqarov (2025) tahlil qilgan [3]. Innovatsion menejment strategiyalarini samarali amalga oshirishda strategik rejalashtirish, inson kapitali va boshqaruv samaradorligining o‘rni ustida D. Pulatova (2025) o‘z izlanishlarini olib borgan [4].

Ushbu ilmiy qarashlar yig‘indisi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion menejment tashkilotlar rivojiga faqatgina yangi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kerakligini talab qilmasdan, balki yaxlit tashkiliy-iqtisodiy tizim sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.



Asosiy qism


Innovatsion menejmentning tashkiliy-iqtisodiy asoslari asosan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy tashkiliy boshqaruv, moliyaviy ta’minot, inson kapitali va natijadorlikni baholash kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Innovatsion jarayonlarni tashkil etish yo‘nalishida asosan e’tibor har bir tashkilotda yangi va raqobatbardosh g‘oyalarni shakllantirish, ularni iqtisodiy jihatdan baholash, ushbu g‘oyalardan foydalanishdan oldin ularni tajriba-sinovdan o‘tkazish, so‘ng amaliyotga tadbiq qilishga qaratilgan. Ushbu jarayonlar N. Sodiqovaning (2024) tadqiqotida keltirilb o‘tilgan [2]

Keying yo‘nalish innovatsion faoliyatning iqtisodiy mexanizmi hisoblanib, bunda avvalo loyihalarni tanlashda kutilayotgan iqtisodiy samara, xarajatlar, qaytish muddati va tashkilot strategiyasiga muvofiqlik hisobga olinishi kerak, chunki innovatsion loyihalarni amalga oshirish moliyaviy resurslar, investitsiya va tavakkalchiliklarni boshqarishni talab etadi. Moliyalashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish esa samarasiz loyihalarga ortiqcha mablag‘ sarflanishining oldini olishga yordam beradi.

A. Q. Asqarov (2025) o‘z tadqiqotlarida innovatsion menejment tizimini joriy etish orqali tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish masalasi ko‘rib chiqilgan [3]. Innovatsion menejment va raqobatbardoshlik o‘rtasidagi bog‘liqlik yondashuvini boshqa tashkilotlarga tatbiq etishda innovatsiyalarni faqat texnologik yangilanish bilan cheklamaslik, balki xizmat ko‘rsatish sifati, ichki boshqaruv, xodimlar malakasi va mijozlar ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘lash zarur.

To‘rtinchi yo‘nalish — inson kapitali va strategik boshqaruv. D. Pulatovaning (2025) tadqiqotida strategik rejalashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va samarali kommunikatsiya innovatsion menejment natijadorligining muhim omillari sifatida ko‘rsatilgan [4]. Bundan kelib chiqadiki, xodimlarning yangi g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, kasbiy malakasini oshirish va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish tashkilotning innovatsion salohiyatini mustahkamlaydi.



O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, innovatsiyalar joriy qilgan korxona va tashkilotlar soni 2023-yilda 5 026 ta, 2024-yilda esa 1 835 ta bo‘lgan [5]. Bu ma’lumotlar innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlarini muntazam tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ko‘rsatkichlardagi farqning sabablarini aniqlash uchun statistik qamrov, hisobga olish metodikasi va innovatsiya turlarini alohida o‘rganish talab etiladi. Shu sababli ushbu raqamlar asosida innovatsion menejment samaradorligi pasaygan, degan qat’iy xulosa chiqarish mumkin emas.

Umuman olganda, tashkilotlarda innovatsion menejment samaradorligi tashkiliy tartiblarning aniqligi, moliyaviy resurslarning maqsadli taqsimlanishi, xodimlar salohiyati va natijalarni baholash tizimiga bog‘liq. Mazkur omillarni yagona boshqaruv mexanizmiga birlashtirish innovatsion g‘oyalarni amaliy iqtisodiy natijaga aylantirish imkonini beradi.

Tashkilotlarda innovatsion menejmentni rivojlantirish tashkiliy boshqaruv, moliyaviy ta’minot, inson kapitali va natijadorlikni baholash mexanizmlarining uyg‘unligini talab etadi. 2024–2025-yillarda chop etilgan mahalliy tadqiqotlar innovatsion jarayonlarni boshqarish, strategik rejalashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalarining dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tashkilotlarida innovatsion menejmentni takomillashtirish uchun

loyihalarni iqtisodiy jihatdan asoslash, xodimlar tashabbuslarini rag‘batlantirish, ilmiy-biznes hamkorligini kengaytirish va aniq samaradorlik ko‘rsatkichlarini joriy etish muhimdir. Ushbu choralar innovatsion faoliyatning natijadorligini oshirish va tashkilotlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni. “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/acts/-6102462

2. Sodiqova, N. T. (2024). Korxonada innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari va uning menejmenti. Modern Science and Research, 3(6), 703–709. https://doi.org/10.5281/zenodo.12091158

3. Asqarov, A. Q. (2025). Innovatsion menejment tizimini joriy etish orqali oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirish. Marketing, 1, 433–439. https://doi.org/10.67668/mj/2025iss1/1269

4. Pulatova, D. (2025). Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion menejment strategiyalarining samaradorligini oshirish yo‘llari. Green Economy and Development, 3(9). https://doi.org/10.5281/zenodo.17161429

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Innovatsiyalar joriy qilgan korxona va tashkilotlar soni. SIAT rasmiy statistik ma’lumotlar bazasi. https://siat.stat.uz/data/3183/